

BUXORO CHITTAGI *PARUS BOCHARENSIS* BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASIGA OID MATERIALLAR

Matekova G.A.¹, Bekniyazova D.B.², Abdikarimova M.K.²,

Jumabayeva A.K.², Arzibayev D.F.², Matekova T.A.³

¹ O'zRFA QQ bo'limi, Tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot Instituti, O'zbekiston, gmatekova@mail.ru;

² Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti, O'zbekiston,

³ Samarqand davlat veteranariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, O'zbekiston,
tamaramatekova1@gmail.ru

Annotatsion: *The scientific work presents the materials related to the biology and ecology of the Bukhara chitta (Parus bocharensis) in the conditions of the Amudarya river flow are presented on scientific grounds.*

Buxoro chittagi *Parus bocharensis* Amudaryoning quyi oqimi sharoitida o'troq holda yashovchi va uya quruvchi, keng tarqalgan ko'p sonli qushlardan sanaladi.

Adabiyot ma'lumotlari Buxoro chittagining ulkamizda o'troq qush ekanligi va uya qurishi qayd etilgan [3, 1, 4, 2].

N.A.Zarudniy, S.I.Bilkevich (1918) tomonidan Buxoro chittagi Orol dengizining janubiy qirg'oqlarida, Amudaryoning quyi, o'rta va yuqori oqimlarida o'troq qush ekanligi haqida ma'lumotlar aytib o'tilgan [3].

Bizning kuzatishimiz bo'yicha Buxoro chittagi odatda yashash joylari, tarqalishi va uya qurish joylari turang'illi, tolli, jiydali, yulg'inli to'qaylar hisoblanadi. Uylarini daraxtlar shoxlarining sinishidan yoki chirishidan paydo bo'lgan chuqur joylariga quradi.

N.A.Rashkevich (1962) 1957 yil 27 aprelda Buxoro chittagining 2 ta uyasini qayd etgan. 1958 yil 5 mayda topilgan uyada 5 ta polapon bo'lgan [5].

A.Mambetjumayev (1969) tomonidan Buxoro chittagining 1961-1963 yillarda (Baday to'qay) 80 ta uyasi [4], 1966-1967 yillari T.Abdreimov (1981) ma'lumotlarga bo'yicha 23 ta uyasi kuzatilgan, dastlabki uylar 1967 yil 11,12 va 15 aprelda, 1968 yili 7-8 aprelda topilgan [1].

Bizning tadqiqotlarimizda Buxoro chittagi uylari Amudaryoning quyi oqimi sharoitida, odatda turang'il daraxtining singan shoxlar o'rnidagi chuqurlikga, kovaklarga va turang'il daraxtining ildizidan vujudga kelgan ildiz singari o'sib chiqqan novdalarining ichkarisiga qurilgan edi. Uyaning ichiga, uya qurish joylariga - yaqin atrofda o'sgan har xil o'simliklarning qurigan novdalaridan, o'zining patlarini va qo'y va echkilarning jun parchalarini to'shaydi. Uylarning o'lchami, kirish teshigi, balandligi, diametri-eni, uzunligi, chuqurligi uyaning payda bolish sharoitiga bog'liq.

Buxoro chittagining asosiy uyalash davri aprel oyining oxiri - iyun oyining boshida kechadi. Shuni aytish joizki, ular alohida juft bo'lib uya quradi. Uya qurish 5-8 kun davom etadi. Uylar orasidagi masofa 57-270m. gacha o'zgarib turadi.

Bizning kuzatuvimiz bo'yicha dastlabki uylar may-iyun oylarida qurilgan (08.05.2009; 16.06.2013; 07.05.2014; 07.05.2022 yil). Uylarda odatda 4-6 ta gacha oq rangdagi tuxumlar qo'yishi aniqlandi. Tuxumlarni bosib yotish 1-tuxum qo'yilgandan so'ng boshlanadi. Shu sababli, jo'larning chiqishi har kuni davom etadi.

Tuxumlarning (n=28) o'lchami: uzunligi va kengligi 16,2-20,4×12,6-13,8 mm, yangi qo'yilgan tuxumlarning (n=19) og'irligi 1,4-1,9 g. ni tashkil etadi. Tuxum bosib yotish jarayoni o'rtacha 13-14 kun davom etadi. Odatda, tuxum bosish davrida tuxumlarni asosan moda qush bosib yotadi, nar qush esa modasini oziqlanishga ketgan paytta tuxumlarni bosib yotadi. Tuxumlardan yangi chiqqan polaponlar nimjon, yalong'och, och pushti rangli va ko'zlari yumilgan, eshitish teshiklari yopiq holda tug'iladi. Tuxumdan chiqqan polaponlarning massasi 0,9-1,2 ni tashkil etadi. Polaponlar 16-17 kunlikda uyadan uchib chiqishi kuzatildi.

Polaponlarni oziqlantirishda ota-onalari ozuqa yetkazib beradi, polaponning oziqlanishini ularning qizilo'ngachini yumshoq ip bilan bog'lab o'rgandik, tadqiqotlar natijasida polaponlar asosan to'g'riqanoqlilar (chigirtkalar), qo'ng'izlar lichinkalari, kapalaklar qurti, o'simliklar mevasi va yashil yaproqlari bilan oziqlanishi aniqlandi.

Ko'payish davrida uylari joylashgan hududlarning xasharotlarni yo'q qilishda, yaqshi foydali tomoni ko'p, shuning uchun bu qushlarni biologik tur sifatida yashash va uya qurish joylarida muhofaza qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Абдреймов Т. Птицы тугаев и прилегающих пустынь низовьев Амударьи. - Ташкент: Фан, 1981. - 108 с.
- 2.Жуманов М.А., Матекова Г.А. Материалы к орнитофауне Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата // Гулистон Давлат Университети Ахборотномаси. – Гулистон, 2016. - №3(62). – С. 17-21.
- 3.Зарудный Н.А., Билькевич С.И. Список птиц Закаспийской области и распределение их по зоологическим участкам этой страны // Изв. Закаспийского музея. – Ташкент, 1918. Кн.1. – С. 1-48.
- 4.Мамбетжумаев А.М. К биологии размножения бухарской синицы *Parus bocharensis* в низовьях Амударьи // Русский орнитологический журнал. 1999. Вып. № 76. – С. 15-23.

5. Рашкевич Н.А. Численность и некоторые черты экологии птиц в тугаях низовьев Амударьи // Сб. Орнитология. – Москва, Изд-во МГУ, 1965. Вып. 7. – С. 142-145.
6. Yusupovich R. A. et al. ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 4. – С. 331-335.
7. Ruyiddinov A. X. et al. QASHQADARYO VILOYATI ORNITOFAUNASINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI // O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 503-506.
8. Khursandovich B. J. et al. Species composition and significance of entomophages of apple moth in the south of Uzbekistan // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – Т. 12. – №. 6.